

BOSHLANG'ICH SINFLARDA KOMBINATORIKA ELEMENTLARINI BOSQICHMA-BOSQICH O'QITISH MAZMUNI

Toshboyeva Saida Rahmonberdiyevna

Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich talim uslubiyoti

katta o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

sr.toshboyeva@pf.fdu.uz

Yusupova Latofat Abduqodir qizi

Farg'ona davlat universiteti ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti

yusupovalatifa438@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda boshlang'ich sinf matematika kursida kombinatorika elementlarini bosqichma-bosqich o'qitishning mazmuni, tamoyillari hamda o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kombinatorik fikrlashni shakllantirishning bosqichlari va metodik yondashuvlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kombinatorika, boshlang'ich ta'lim, mantiqiy tafakkur, metodika, bosqichma-bosqichlik, o'qitish tamoyillari.

Аннотация. В данном тезисе проанализированы содержание, принципы и роль поэтапного обучения элементам комбинаторики в курсе математики начальных классов в развитии логического и творческого мышления учащихся. Раскрыты этапы и методические подходы к формированию комбинаторного мышления у учащихся начальных классов.

Ключевые слова: комбинаторика, начальное образование, логическое мышление, методика, поэтапность, принципы обучения.

Abstract. In this thesis, the content and principles of phased teaching of elements of combinatorics in the elementary school mathematics course, as well as their role in the development of logical and creative thinking of students, are analyzed. The stages and methodological approaches to the formation of combinatorial thinking in primary school students are revealed.

Keywords: combinatorics, primary education, logical thinking, methodology, phasing, teaching principles.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-sentyabr kuni maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videosektor yig'ilishi o'tkazildi. Shu nuqtayi nazardan, matematika fanida kombinatorika elementlarini o'qitish o'quvchilar tafakkurini kengaytirish, ularni muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlashga

o‘rgatishning samarali vositasi hisoblanadi. Boshlang‘ich ta‘limda kombinatorika elementlarini o‘qitish quyidagi maqsadlarga qaratilgan¹:

- o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- miqdoriy munosabatlarni anglashni osonlashtirish;
- mustaqil yechim izlash malakasini rivojlantirish;
- ijodiy tafakkurni o‘stirish.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida matematika fani o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, kombinatorika elementlarini o‘rgatish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarda yechim topishga o‘rgatishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Kombinatorika matematikaning ob’ektlar to‘plamidan turli tartiblashlar, tanlashlar va joylashtirishlar hosil qilish qonuniyatlarini o‘rganuvchi bo‘limi sifatida talqin etiladi. Shu bois, uni boshlang‘ich bosqichda o‘qitish o‘quvchilarning matematik dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflarda kombinatorika elementlarini o‘rganish jarayoni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda tashkil etilishi lozim. Chunki bu yoshda bolalarda mantiqiy fikrlash hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, ular ko‘proq ko‘rgazmali, amaliy misollar orqali tushunchalarni anglaydilar. Shu sababli dastlabki bosqichlarda o‘quvchilar kombinatorika bilan bevosita tanishmaydi, balki sanash, tartiblash, juftlash kabi elementar harakatlarni bajarish orqali bu tushunchalarga tayyorlanadilar.² Masalan, turli rangdagi sharlarni juftlash, kiyimlarni turlicha tanlash yoki predmetlarni tartib bilan joylashtirish kabi mashqlar o‘quvchilarda kombinatorik fikrlashning boshlang‘ich ko‘nikmalarini shakllantiradi. Kombinatorika elementlarini o‘qitishning mazmuni o‘quvchilarning asta-sekin umumlashtirilgan matematik fikrlash darajasiga o‘tishini ta‘minlaydi. Keyinchalik ular predmetlar sonining o‘zgarishi natijasida kombinatsiyalar soni ham o‘zgarishini kuzatib, o‘z xulosalarini mustaqil chiqarishga harakat qiladilar. Shu tariqa kombinatorika orqali bolalarda sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, taxmin qilish, umumlashtirish kabi yuqori darajadagi aqliy amallar shakllanadi.

Kombinatorika elementlarini bosqichma-bosqich o‘qitish o‘quvchilarning matematik tafakkurini, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Mazkur jarayonda o‘qituvchining metodik mahorati, topshiriqlar tizimini to‘g‘ri tanlashi hamda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

¹ Polatov, B. Boshlang‘ich ta‘limda kombinatorika elementlarini o‘qitishning psixologik asoslari. – Toshkent, 2023.

² Qodirova, M. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalarni yechish metodikasi. – TDIU, 2021.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘raev, A. Matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. Qodirova, M. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalarni yechish metodikasi. – TDIU, 2021.
3. Polatov, B. Boshlang‘ich ta’limda kombinatorika elementlarini o‘qitishning psixologik asoslari. – Toshkent, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Matematika fanidan davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2022.
5. <https://president.uz/oz/lists/view/8471>